



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



ANDIJON VILOYATIDA BOLALAR GEMATOLOGIK KASALLIKLARINING STRUKTURASI

X.O.Mamadaliyeva

M.Sh.Ganiyeva

Andijon davlat tibbiyot instituti

Dolzarbliyi: O'zbekiston Respublikasida gematologik kasalliklarning dolzarbliyi davlat tomonidan qabul qilingan bir qator qarorlar va chora-tadbirlar bilan tasdiqlangan. Jumladan: 2020-yil 10-fevraldag'i Prezident qaroriga muvofiq, 2020-2024-yillarda gematologik kasalliklarga tashxis qo'yish va davolash sifatini oshirish, zarur dori vositalari bilan ta'minlash hamda kadrlar salohiyatini mustahkamlash kabi chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu qatorda 2023-2022-yillarda AVBKTTM bolalar onko-gematologiya markaziga gematologik kasallar bo'yicha murojaat qilgan bemorlar strukturasini o'ziga xosligi.

Maqsad. AVBKTTM murojaat qilgan bolalar axolisi o'rtasida gematologik bemorlarni nozologik birlik bo'yicha taxlil qilish.

Tadqiqot materiallari va usullari: Biz o'z izlanishlarimizda 2023-2024-yillarda bolalar axolisi o'rtasida AVBKTTM davolangan bemorlar sonini o'rganib chiqdik va quyidagi natijalarni kuzatdik.

2023 yilda jami gematologik kasalliklar bo'yicha 718-ta bemor yotib davolandi. Shulardan eng ko'pi 189-tasi Fe tanqisligi anemiyasi bo'yicha (24tasi Paxtaobod tuman, 23tasi Izboskan tuman, 21tasi Asaka tuman), 141-tasi Gemorragik vaskulit bo'yicha (15ta Andijon shahar, asaka tuman, 13tasi Jalaquduq tumani), 138-tasi Immun trombositopenik purpura bo'yicha (16-ta Andijon shahar, 15-ta Andijon tuman, 15-ta Buloqboshi tuman).

2024yilda jami gematologik kasalliklar bo'yicha 845ta bemor yotib davolandi. Shulardan eng ko'pi 314 tasi Fe tanqisligi anemiyasi bo'yicha (57tasi Andijon shahar, 32tasi Izboskan tuman, 24 tadan Asaka tuman, Paxtaobod, Jalaquduq, Oltinko'l), 128tasi Gemorragik vaskulit bo'yicha (32-ta Andijon shahar, 14-ta Asaka tuman, 13-tasi Shahrixon tumani), 71-tasi Immun trombositopenik purpura bo'yicha (16ta Andijon shahar, 13ta Izboskan tuman, 10ta Baliqchi tuman).

Xulosa. 2020-yil 10-fevraldag'i Prezident qaroriga muvofiq, 2020-2024-yillarda gematologik kasalliklarga tashxis qo'yish va davolash sifatini oshirish, zarur dori vositalari bilan ta'minlash hamda kadrlar salohiyatini mustahkamlash kabi chora-tadbirlar o'z samarasini bermoqda ya'ni AVBKTTM bolalar onkologiyasi va gematologiyasiga murojaat qilgan bemorlar soni yildan-yilga ortib bormoqda. Bunga





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'oyalar



sabab qilib ota-onalar tibbiy salohiyatini ortganligi hamda gematologik kasallikkarga tashxis qo'yish va davolash sifatini ortganligini misol keltirish mumkin.



530

